

UDC: 347.(042)(575.1)
ORCID: 0000-0002-4703-3358

O'ZBEKISTONDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING AYRIM TASHKILIY-HUQUQIY MASALALARI

Narimanov Bekzod Abduvaliyevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori
e-mail: tiu-bek@inbox.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati bilan bog'liq muammolar, nodavlat notijorat tashkilotini ijtimoiy foydali deb e'tirof etishni huquqiy tartibga solish istiqbollari, nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokidagi ijtimoiy sheriklik institutining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollari, O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi misolida nodavlat sektorini rivojlantirish strategiyasi kabi masalalar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: nodavlat notijorat tashkilotlari, ijtimoiy foydali deb e'tirof etish, ijtimoiy sheriklik, "xalq diplomatiyasi", soliq imtiyozlari.

НЕКОТОРЫЕ ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ И ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОДДЕРЖКИ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Нариманов Бекзод Абдувалиевич,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются проблемы, связанные с деятельностью негосударственных некоммерческих организаций, перспективы правового регулирования негосударственной некоммерческой организации, подлежащей признанию общественно полезной, перспективы совершенствования правовых норм института социального партнерства с участием негосударственных некоммерческих организаций, стратегия развития некоммерческого сектора на примере Национальной ассоциации негосударственных некоммерческих организаций.

Ключевые слова: негосударственные некоммерческие организации, признание общественно полезными, социальное партнерство, "народная дипломатия", налоговые льготы.

SOME ORGANIZATIONAL AND LEGAL ISSUES OF STATE SUPPORT FOR NON-GOVERNMENTAL NON-PROFIT ORGANIZATIONS IN UZBEKISTAN

Narimanov Bekzod Abduvalievich ,
Independent researcher of Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. This article discusses the issues of problems related to the activities of non-governmental non-profit organizations, prospects for the legal regulation of a non-governmental non-profit organizations that is subject to

recognition as socially useful, prospects for improving the legal norms of the Institute of Social Partnership with the participation of non-governmental non-profit organizations, the strategy for the development of the non-profit sector on the example of the National association of non-governmental non-profit organizations.

Keywords: non-governmental non-profit organizations, recognition as socially useful, social partnership, "people's diplomacy", tax benefits.

Xalqaro tajribada, umuman, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va uning institutlari faoliyatining samaradorligini ta'minlashda asosiy ustuvor yo'naliishlardan biri sifatida NNTlari va davlat organlari o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikni amalga oshirish belgilangan.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda "Islohotlarning amaliy natijadorligini oshirishda, joylarda yangi tashabbuslarni ilgari surishda aholimizning yanada faolroq, yanada tashabbuskor bo'lishiga erishmog'imiz lozim" [1].

Nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha uchta asosiy jihat asosida yoritishni maqsad qilib oldik:

1. Nodavlat notijorat tashkilotini ijtimoiy foydali deb e'tirof etishni huquqiy tartibga solish istiqbollari;

2. Nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokidagi ijtimoiy sheriklik institutining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollari;

3. O'zbekistonda Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi misolida nodavlat sektorni rivojlantirish strategiyasi.

Bugungi kunda aksariyat rivojlangan davlatlarda, xususan, Braziliya, Germaniya, AQShda NNTlarni "ijtimoiy foydali" deb e'tirof etishda muayyan mezonlar belgilanmoqda [2, 192–196-b.].

XVI asrda Yevropada ilk marotaba xayriya tashkilotlari reyestri "Xayriya maqsadlari to'g'risidagi Statut" asosida belgilangan [3, 10-b.].

D. Moor tomonidan NNTlarni ijtimoiy foydali deb topish 6 ta asosni keltirilgan bo'lib, mazkur tartib-taomil davlat organi tomonidan muayyan huquqiy hujjat asosida mazkur maqomni e'tirof etish tartibi va unga belgilangan imtiyozlardan foydalanish tartibi tasnifi berilgan [4, 10-b.].

S.N. Nemgirova fikricha, NNTlarga mazkur maqomni berish hududlar barqarorligida asosiy o'rinn egallaydi [5, 34-b.].

E.K. Guseynov to'g'ri ta'kidlaganidek, NNTlarning ijtimoiy xizmatlarni amalga oshirishi orqali ijtimoiy foydali deb topishi davlat organlarini katta hajmdagi ishdan ozod qiladi [6].

Xorij tajribasidan ma'lumki, homiylik va xayriya faoliyati bilan shug'ullanuvchi nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati haqidagi ma'lumotlar bir qator bir-biridan mustaqil manbalarda e'lon qilinadi. Turli reyting agentliklari fondlar faoliyatini tahlil qilib ularning reytinglarini e'lon qilib boradi. Mazkur holat homiylik va xayriya faoliyatini amalga oshiruvchilar uchun ham o'ziga xos hisobot vazifasini o'taydi.

Ijtimoiy foydali deb topishda davlatlarning yondashuvini turlicha modellarga ajratish mumkin. Germaniya modeliga ko'ra, ijtimoiy foydali NNTlarga aniq imtiyozlar paketi Soliq kodeksida aniq tartibga solinadi [7, 126–130-b.].

Bolgariya modeliga ko'ra, jamoat birlashmalari va jamoat fondlari kabi NTTlar muayyan qonunlar asosida ijtimoiy foydali deb e'tirof etiladi. Tabiiyki, mazkur maqomni qo'llashda turli tashkiliy-huquqiy shakllarga nisbatan turlicha yondashuvlarni keltirib chiqaradi [8].

Mazkur yondashuvni tizimlashtirish maqsadida ijtimoiy foydali deb topish yagona qonun asosida (Vengriya tajribasi) amalga oshirilmoqda [9].

Aksariyat rivojlangan davlatlarda nodavlat sektorni ijtimoiy foydali deb e'tirof etish jarayonini tadqiq etgan olim D. Morris ta'kidlashicha, ijtimoiy foydali degan maqom jamiyat manfaatiga xizmat qilishi lozim. Turli davlatlardagi vakolatlari organlar ijtimoiy foydali deb e'tirof etish bo'yicha komissiyalar 3 ta omil asosida mazkur maqomni taqdim etishi lozim: tashkilot jamiyatga aniq ko'rini turgan, jamiyat a'zolari e'tirof etgan ijtimoiy foydani keltirishi kerak; ijtimoiy foydali bo'lish uchun yetarli darajada shaxslar guruhi mazkur ijtimoiy faoliyat natijasidan bahramand bo'lishi kerak. Ijtimoiy foydali faoliyat alohida shaxslarga qaratilganda to'liq tasodifiy xarakterga ega bo'lishi kerak. Bu narsa manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga qaratilgan [10].

Ijtimoiy foydali faoliyatni aniqlashda turli davlatlarda turlicha nisbatlar keltiriladi. Nederlandiyada nodavlat tashkilotni ijtimoiy

foydali deb topishda tashkilot faoliyatining 50 % dan ortiq qismi ijtimoiy foydali hisoblanishi lozim. Fransiyada tashkilotni ijtimoiy foydali deb e'tirof etish uchun tashkilot qonunda belgilangan ro'yxatdagi kamida 1 ta ijtimoiy xizmatni amalga oshirishi talab qilinadi [11].

Aksariyat davlatlarda "uchinchchi sektor"ga ijtimoiy foydali maqomini soliq organlari taqdim etadi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mazkur maqomni taqdim etishda qonunchilikda tashkilotning tashkiliy-huquqiy shakllariga e'tibor qaratmaydi. Daniya, Finlyandiya, Germaniya, Irlandiya, Niderlandiya, Portugaliya, Shvetsiya mazkur tartib asosida ish yuritadi. Daniyada soliq organlari har yil yakuniga ko'ra qaysi tashkilotni ijtimoiy foydali maqomiga ega tashkilotlar keng jamoatchilikka e'lon qilinadi.

Germaniyada ijtimoiy foydali maqomni mahalliy soliq organlari taqdim etadi va har 3 yilda bir marta tashkilotlarni ijtimoiy foydali predmetiga ko'ra tekshiruvdan o'tkazadi. Niderlandiyada ijtimoiy foydali deb topishning xabardor qilish tartibi o'rnatilgan bo'lib, mazkur protsedura yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ma'muriy huquqiy nizoning oldini olishga qaratilgan. Niderlandiyada ijtimoiy foydali deb e'tirof etishning asosiy ko'rinishi sifatida tashkilotning yillik hisobotlarini maxsus standartlar asosida ochiq e'lon qilishga qaratiladi [12, 19-25-b.].

Fikrimizcha, bu, ayniqsa, homiylik tashkilotning mazkur maqomga ega bo'lishi donor tashkilot va jismoniy shaxslarning xayriya mablag'larini amalga oshirishda ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, soliq organlaridan tashqari mustaqil reyting tashkilotlarining, homiylik tashkilotlarining faoliyatini ochiqlanishi va reytinglarini e'lon qilib borishi turli korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvni kabi holatlarining oldini oladi.

Bolgariyada ijtimoiy foydali deb topish Adliya vazirligi tomonidan nodavlat notijorat tashkilotining tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda ariza topshirish orqali amalga oshiriladi. Agar Adliya vazirligi tomonidan ijtimoiy foydali maqomni berish rad etilsa, nodavlat tashkiloti Oliy Ma'muriy sudiga ma'muriy organ qarori yuzasidan shikoyat bilan murojaat qilishga haqli [13].

Fikrimizcha, ijtimoiy foydali maqomini taqdim etishga bitta organni vakolatlari deb belgilash, keyinchalik nodavlat notijorat tashkilotlarini

siyosiy motivlar bilan mazkur maqomdan mahrum qilishga olib kelishi mumkin. Shu sababli Vengriya va Polshada ijtimoiy foydali maqomini berish va maxsus sertifikatlarini taqdim etish vakolati sud organlariga berilgan. Fransiyada ham mazkur vakolat Davlat kengashi – oliy ma'muriy sud organiga berilgan [14, 20-b.].

Yuqorida tahlillardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilish hamda jamiyat rivojlanishiga qo'shgan hissasini inobatga olgan holda ularning faoliyatini baholash mezonlari va metodologiyalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Mazkur mezonlar xorij tajribasidan kelib chiqqan holda nodavlat notijorat tashkilotini ijtimoiy foydali deb topish va ijtimoiy foydalilik darajasini belgilashga qaratiladi.

Bugungi kunda *80 dan ortiq mamlakatlarda* jamoat palatalari va ularning analoglari tashkil etilgan. Ular ayrim davlatlarda konstitutsiyaviy maslahat organi bo'lsa, ayrimlarida maslahat organlari maqomiga ega. Ushbu tuzilmalar kengashlar shaklida yoki turli komissiyalar, guruhlar, maslahat majlislari va boshqalar shaklida tuzilganligini ko'rishimiz mumkin [15].

Fikrimizcha, mazkur tuzilmaga nodavlat notijorat tashkilotiga ijtimoiy foydali maqomni berish orqali davlat budgetidan ajratilgan mablag'larni subsidiya, grant va ijtimoiy buyurtma shaklida berishda adolatlilik, shaffoflik va natijadorlikka asosiy e'tibor beriladi.

Shu bilan birga, Jamoatchilik palatasi tomonidan fuqarolik jamiyatni institutlarining samaradorlik va natijadorlikning asosiy ko'rsatkichlari mezonlari sifatida ijtimoiy foydali loyihibar soni, sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha berilgan takliflar va ular asosida ish jarayoni va qonun hujjatlariga kiritilgan tegishli o'zgartirishlar, jamoatchilik nazorati sohasida faoliyat darajasi kabilarni keltirish mumkin. *Mazkur mezonlar va nodavlat notijorat tashkilotlarining reytingi elektron platformada ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida barcha soliq to'lovchilar e'tiboriga onlayn rejimda havola etib borish maqsadga muvofiq.*

Butun insoniyat duch kelgan koronavirus pandemiyasi sharoitida yana bir bor ijtimoiy sheriklik mazmun-mohiyati bilan davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun eng zarur ijtimoiy,

siyosiy va huquqiy institut ekanligini isbotlab bo'ldi. Eng qudratli davlatlar misolida jamiyat va keng jamoatchilik ishtirokisiz pandemiya kabi muammolarga qarshi kurashga davlatning bir o'zi ojiz qolayotganligini ko'rdik.

Ijtimoiy sheriklik tarixi haqida Sh. Yakubov tarixiy davrlar asosida shakllanib, rivojlanib kelgan ijtimoiy hamkorlik XX asrga kelib ijtimoiy sheriklikka transformatsiya bo'lganligini e'tirof etadi [16, 96].

Xorijiy mamlakatlardan tajribasiga ko'ra, Buyuk Britaniya va Kanadada hukumatning ijtimoiy sheriklik bo'yicha nodavlat sektor bilan hamkorlik bo'yicha muayyan shartnoma va kelishuvlari doirasida tartibga solinishi mumkin. Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlatlarda hukumatning nodavlat sektor bilan ijtimoiy sherikligining huquqiy mexanizmi Asosiy qonunda belgilangan asosiy prinsiplarga tayanadi. Ya'ni ushbu davlatlarda ijtimoiy sheriklik alohida qonun hujjati bilan tartibga solinmagan.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat organlari bilan ijtimoiy sheriklikka bag'ishlangan M.S. Haque [17, 271-290-b.], D.A. Bräutigam, M. Segarra [18, 149-181-b.], P. Willetts [19, 191-212-b.], C.C. Millar [20, 395-414-b.] va boshqa bir qator tadqiqot ishlarini keltirib o'tish mumkin.

T.B. Matiboyevning ta'kidlashicha, XX asr o'rtalarida ijtimoiy shartnoma nazariyasi o'rniga ijtimoiy sheriklik nazariyasi keldi va uning nazariy konseptual nazariyasi ijtimoiy harakat nazariyasi, ijtimoiy birdamlik, ijtimoiy kelishuv, ijtimoiy jipslik to'g'risidagi g'oyalar asosida shakllandi [21, 10-b.]. M. To'xtayeva ta'kidlashicha, qonun, eng avvalo, ijtimoiy, iqtisodiy, gumanitar sohalarda davlat idoralari bilan birga, fuqarolik jamiyatini institutlarining o'zaro hamkorligini nazarda tutadi [22].

Sh. Yakubov fikriga ko'ra, mazkur qonun qabul qilinishi barcha davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ijtimoiy sheriklikka kirishishining huquqiy mexanizmi belgilandi [23, 114-b.].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bugungi kunda aholini o'ylantirayotgan muammolarga davlat idoralari e'tiborini qaratib, o'zlarining

asoslangan takliflarini berib borishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Buning uchun mamlakat va hududlar darajasida nodavlat notijorat tashkilotlari bilan ijtimoiy sheriklikni keng yo'lga qo'yib, grantlar va ijtimoiy buyurtmalarni ko'paytirishimiz kerak. Vazirlik va idoralar ham bir chetda tomoshabin bo'lib o'tirmasdan, bunday ijtimoiy hamkorlik ishlarini kengaytirishi lozim. Shuning uchun Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamaat fondining faoliyatini takomillashtirish darkor, deb ta'kidladi [24].

NNT faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy sheriklikni ta'minlash uchun 2019-yilda parlament komissiyasi tomonidan 321 ta loyihani amalga oshirishga 37 mlrd so'm ajratildi [25].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasiga muvofiq davlat organlari va mansabdar shaxslarning jamaat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek jamaat birlashmalarining davlat organlari va mansabdar shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

A. Saidov ta'kidlashicha, ijtimoiy sheriklik – davlat organlari va NNT o'rtasida fuqarolarning keng ko'lamli ijtimoiy muammolarini hal qilishga, ayniqsa, yoshlarning tashabbuslari va zamonaviy g'oyalarini haqiqatda ilgari surishga qaratilgan hamkorlikning samarali mexanizmiga aylana olgani yo'q [26, 123-b.].

O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-376-sون Qonuni ijtimoiy sheriklikning huquqiy mexanizmlarini belgilab berish maqsadida qabul qilingan maxsus hujjat sanaladi. Mazkur fikrlarga qo'shilgan holda M. Karimova tadqiqot ishi davomida Toshkent shahri va viloyatida Ijtimoiy sheriklik bo'yicha Jamoatchilik komissiyasining faoliyatini o'rganib, belgilangan vazifalar umuman bajarilmaganligi va umuman mazkur tuzilma rasmiy xarakterga ega bo'lgan amalda deyarli ishlar mayotganligi ta'kidlanadi [28].

"Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuning 21-moddasiga O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 14-sentabrdagi O'RQ-446-soni Qonuna asosan kiritilgan qo'shimchaga asosan davlat boshqaruvi organlari tomonidan ijtimoiy masalalarni hal qilish uchun budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan bevosita davlat ijtimoiy

buyurtmasini nodavlat notijorat tashkilotlariga berish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 135-sон qarori bilan Sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun davlat boshqaruvi organlari tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasini berish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.

Ushbu qonunchilikdagi o'zgartirishlarga ko'ra, davlat boshqaruvi organlari o'z vazifa va funksiyalari doirasidagi ijtimoiy masalalarni samarali va tejamkor usulda nodavlat notijorat tashkilotlariga budgetdan tashqari mablag'lар hisobidan bevosita davlat ijtimoiy buyurtmasini berishi orqali hal qilish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Biroq amaliyotda davlat boshqaruvi organlari tomonidan o'z vazifa va funksiyalari doirasidagi ijtimoiy masalalarni samarali va tejamkor usulda nodavlat notijorat tashkilotlariga budgetdan tashqari mablag'lар hisobidan bevosita davlat ijtimoiy buyurtmasini berish tajribasidan deyarli foydalanmayapti.

Buning sabablaridan biri, davlat boshqaruvi organlari tomonidan ushbu institutni imkoniyatlari va afzalliklarini to'liq bilmaslik hisoblanadi.

Shu bois, davlat boshqaruvi organlari mas'ul xodimlari uchun ushbu institutning imkoniyatlari va afzalliklari bo'yicha doimiy ravishda adliya vazirligi va Jamoatchik palatasi tomonidan seminar-treninglarni tashkil qilish taklif qilinadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaati [Address of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis]. Xalq so'zi – People's Speech, January 21, 2020.
2. Koroleva L. P. Problemy i predlozhenniya po kvalifikacii statusa social'no orientirovannoj nekommercheskoj organizacii v kachestve nalogoplatelshhika [Problems and suggestions for qualifying the status of a socially oriented non-profit organization as a taxpayer]. Nalogi i finansovoe pravo – Tax and financial law, 2011, no. 6, pp. 192-196.
3. Izbrannye polozhenija iz mirovoj praktiki o porjadke predostavlenija organizacijam statusa blagotvoritel'nyh, obshhestvennoj pol'zy i osvobozhdjonnyh ot nalogoooblozenij. Sbornik materialov [Selected provisions from world practice on the procedure for granting organizations the status of charitable, public benefit and tax-exempt. Collection of materials]. Mezhdunarodnyj centr nekommercheskogo prava – International Center for Non-Commercial Law, Almata, 2008, p. 10.
4. Yakubov Sh. Davlat va fuqarolik jamiyatni institutlari hamkorligining huquqiy mexanizmlari. Monografiya [Legal mechanisms of cooperation between state and civil society institutions. Monograph]. Tashkent, 2018, p. 96.
5. Nemgirova S.N. Potencial razvitiya social'no orientirovannyh nekommercheskih organizacij kak postavshhikov obshestvenno poleznyh uslug [Development potential of socially oriented non-profit organizations as providers of socially useful services]. Vestnik Instituta kompleksnyh issledovanij aridnyh territorij – Bulletin of the Institute for Integrated Research of Arid Territories, 2017, vol. 1, no. 1 (34).
6. Gusejnov E.K. Nekommercheskiye organizatsii v sfere uslug sotsialnoy zashiti: perspektivi razvitiya i problemi gosudarstvennoy podderjki [Non-profit organizations in the field of social protection services: development prospects and problems of state support]. Diskussii. 2013, no. 11 (41).
7. Sigidaeva A.V., Koropec A.A., Pavlova V.S. Analiz zarubejnogo opita nalogoooblojeniya nekommercheskix organizatsiy [Analysis of foreign experience in taxation of non-profit organizations]. Problemi razvitiya predpriyatiy: teoriya i praktika – Enterprise development problems: theory and practice, 2019, no. 1-3, pp. 126-130.
8. Miheeva Y. M., Peshkova N. N. Status blagotvoritelnoy organizatsii v strukture regiona [The status of a charitable organization in the structure of the region]. 2012.
9. Goncharenko L.I. i dr. Nalogoooblojenije nekommercheskix organizatsiy [Taxation of non-profit organizations]. 2017.
10. Morris D., Unit C.L. How does the Common Law Assess Public Benefit in Order to Define a Charity. International Journal for Not-for-Profit Law, 1999, no. 2.

11. Izbrannye polozhenija iz mirovoj praktiki o porjadke predostavlenija organizacijam statusa blagotvoritel'nyh, obshhestvennoj pol'zy i osvobozhdionnyh ot nalogoooblozenij. Sbornik materialov [Selected provisions from world practice on the procedure for granting organizations the status of charitable, public benefit and tax-exempt. Collection of materials]. Mezhdunarodnyj centr nekommercheskogo prava – International Center for Non-Commercial Law, Almata, 2008, p. 16.
12. Borovkova Y.I. Blagotvoritelnost' i sponsorstvo [Charity and sponsorship]. Vestnik nauchnogo obshhestva studentov, aspirantov i molodih uchenih – Bulletin of the scientific society of students, graduate students and young scientists, 2018, no. 2, pp. 19–25.
13. Zakon ob yuridicheskikh licax s nekommercheskimi celyami [Law on Legal Entities with Non-Profit Municipalities].
14. Izbrannye polozhenija iz mirovoj praktiki o porjadke predostavlenija organizacijam statusa blagotvoritel'nyh, obshhestvennoj pol'zy i osvobozhdionnyh ot nalogoooblozenij. Sbornik materialov [Selected provisions from world practice on the procedure for granting organizations the status of charitable, public benefit and tax-exempt. Collection of materials]. Mezhdunarodnyj centr nekommercheskogo prava – International Center for Non-Commercial Law, Almata, 2008, p. 20.
15. Saydullayev Sh.A. Jamiyat – islohotlar tashabbuskori [Society is the initiator of reforms]. Xalq so'zi – People's word, 2020, July 15, no. 14.
16. Yakubov Sh. Davlat va fuqarolik jamiyatni institutlari hamkorligining huquqiy mexanizmlari. Monografiya [Legal mechanisms of cooperation between state and civil society institutions. Monograph]. Tashkent, 2018, p. 96.
17. Haque M. S. Governance based on partnership with NGOs: implications for development and empowerment in rural Bangladesh. International Review of Administrative Sciences, 2004, vol. 70, no. 2, pp. 271–290.
18. Bräutigam D. A., Segarra M. Difficult partnerships: the World Bank, states, and NGOs. Latin American Politics and Society, 2007, vol. 49, no. 4, pp. 149–181.
19. Willetts P. From "consultative arrangements" to "partnership": The changing status of NGOs in diplomacy at the UN. Global Governance: A Review of Multilateralism and International Organizations, 2000, vol. 6, no. 2, pp. 191–212.
20. Millar C.C.J.M., Choi C.J., Chen S. Global strategic partnerships between MNEs and NGOs: Drivers of change and ethical issues. Business and Society Review, 2004, vol. 109, no. 4, pp. 395–414.
21. Matiboyev T.B. O'zbekistonda ijtimoiy sheriklik tizimi: shakllanishi, rivojlanishi va istiqbollari [The system of social partnership in Uzbekistan: formation, development and prospects]. Tashkent, Akademiy, 2014, p. 10.
22. Social partnership plays an important role in the development of civil society institutions. Available at: <http://parliament.gov.uz/upload/iblock/cb3/srsiefppozktkk.pdf/>.
23. Yakubov Sh. Davlat va fuqarolik jamiyatni institutlari hamkorligining huquqiy mexanizmlari. Monografiya [Legal mechanisms of cooperation between state and civil society institutions. Monograph]. Tashkent, Lesson Press Publ., 2018, p. 114.
24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaati [Address of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis]. Xalq so'zi – People's word, 2020, January 21.
25. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2020-yil 1-avgustdag'i 9/11-3/3-462 son javob xati [Reply letter of the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan dated August 1, 2020 No. 9/11-3/3-462].
26. Yakubov Sh. Davlat va fuqarolik jamiyatni institutlari hamkorligining huquqiy mexanizmlari. Monografiya [Legal mechanisms of cooperation between state and civil society institutions. Monograph]. Tashkent, Lesson Press Publ., 2018, p. 123.
27. Saidov A.X. Fuqarolik jamiyatni institutlari yuksalish bosqichida [Civil society institutions are on the rise]. 08.05. 2020. UzA official website. Available at: <http://aza.uz/oz/society/fu-qarolik-zhamiyati-institutlari-yuksalish-bos-ichida-08-05-2018/>.
28. Karimova M. Ijtimoiy sheriklik masalalariga jiddiy yondashuv zarur [A serious approach to social partnership issues is needed]. Jamiat ijtimoiy-siyosiy gazetasi – Socio-political newspaper of the society, 2016, no. 87.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON / 2021

II QISM

BOSH MUHARRIR:

Nodirbek Salayev

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Jurnal 15.12.2021-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 25,92 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma: № 70.

TDYU tipografiyasida chop etildi.